

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Qodirova Fotima Xamidjonovna

FarDU akademik litsey, ingliz tili fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18163171>

Annotatsiya. Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan mamlakatlar qatori yurtimiz O'zbekistonda ham zamon talabiga aylanmoqda. Chet tillarini o'rganish uchun barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida bugun chet tillariga, ayniqsa, ingliz tiliga e'tibor kuchaymoqda. Nafaqat chet tillari misolida, balki ilm dunyosining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar, har jabhada yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday ulkan bunyodkorlik ishlarining boshida yurtboshimiz muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ko'rsatgan jonbozliklari, yoshlarga bo'lgan e'tibor, kelajakka ishonch kabi tuyg'ular o'z aksini topmoqda.

Kalit so'zlar: metodika, malaka, mutaxassis, Chet til metodikasi, innovatsiya, talab va taklif, samaradorlik, munozara va muhokama.

Аннотация. В наши дни изучение и преподавание иностранных языков становится необходимостью в нашей стране, как и во всех развитых странах. Не будет преувеличением сказать, что условия, созданные для изучения иностранных языков всеми нашими соотечественниками, дают положительные результаты. Среди реформ, проводимых в нашей стране, сегодня все больше внимания уделяется иностранным языкам, особенно английскому. Серьезные изменения и инновации внедряются не только в области иностранных языков, но и во всех областях мировой науки. Конечно, в начале такой масштабной творческой работы находят отражение усилия нашего уважаемого Президента Шавката Мирзиёева, внимание к молодежи и уверенность в будущем.

Ключевые слова: методология, квалификация, специалист, методика преподавания иностранных языков, инновации, спрос и предложение, эффективность, дискуссия.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda, muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1875-sonli PQ qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan.

Yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli yosh avlodning zamonaviy bilim olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalar maqsadga erishishda kafolatli vosita sifatida xizmat qiladi va o'z ijobiy natijasini ko'rsatadi. Darhaqiqat, har bir dars mashg'ulotlarining muvaffaqiyatli tashkil etishning 80% i ta'lim jarayonini to'g'ri rivojlantirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Bugungi kunda zamonaviy tillarni o'rganish ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosida har bir darsni o'ziga xos, takrorlanmas darajada tashkil etish ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yondoshish zarurligini talab qiladi. Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir.

Yurtimizning barcha ilm maskanlari: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. O'quvchi o'z fikrini erkin bayon etishi, mavzuni guruh yoki jamoa ichida yoritib berishida esa ilg'or texnologiyalarning o'ni katta ahamiyatga egadir.

Binobarin, chet tili va uning metodikasini o'qitishning maqsad va vazifalari jamiyatimiz va davlat manfaatlariga talablariga, unib-o'sayotgan yosh avlod talablariga mos kelishi va javob berishi lozim.

Til o'rganish kishilik jamiyatida nihoyatda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Chet tili – bu xorijiy mamlakat tilidir. Tabiiyki, bunda o'zga davlat tilini o'rganish ko'plab qiyinchiliklar kasb etadi. Ammo, ularga qaramasdan bugungi kunda O'zbekiston yoshlari chet tiliga ulkan qiziqish va ishtiyoq bilan qaramoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh, 21-asr yoshlari qaysi xorijiy tillarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratishi lozim va nima maqsadda? Davr va Chet tillari Shubhasiz, davr taraqqiyoti, globallashuv jarayoni yoshlardan bir necha xorijiy tillarni bilishni talab qilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Bugungi kunda ilmiy texnik taraqqiyot har sohada, jumladan, ta'limtarbiya sohasida ham yangi-yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab ayni paytda ehtiyojga aylandi., til o'qitishning zamonaviy metodlarini izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishga talab kuchaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytishga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayoniga amaliy ishlarni bajarish orqali yo'naltirilgan.

Ta'lim jarayoni murakkab jarayondir. O'quvchi yoshlar ongida yangi o'quv materiallarini singdirish, berilgan mavzuni mustahkamlash, yodda saqlashga ko'maklashish uchun har bir o'qituvchi, bugungi kunda pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalana olishi zarur.

Zamonaviy mashg'ulotlardagi foydalanilayotgan metodlar. Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum" va "Pinboard" kabi metodlar orqali talaba-yoshlar saviyasi va chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. "Aqliy hujum" metodi o'rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab ko'rishga mo'ljallangan metod hisoblanadi.

Bu usul bilan talabalarining diqqatini mashg'ulot mavzusiga qaratish uchun o'qituvchi tomonidan savol-javob tashkil qilinadi. Bu jarayonda savollar turlicha, mantiqan, qiziqarli yoki ilmiy-siyosiy jihatdan mavzuga aloqador bo'lishi lozim.

Ushbu savol-javob talaba – yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanib, mashgʻulotlar tashkil qilinganda oʻrganuvchilar turli savollarga javob izlaydilar, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, vaziyatdan qay tarzda chiqib ketish yoʻllarini qidiradilar. Bu esa ularning darsga va yangi mavzuga qiziqishning ortishiga, faollashuviga olib keladi. Bu metoddan foydalanilgan paytda har bir talabaning bergan javobi inobatga olinadi. Asosiysi, har bir talabadan oʻz javobini asoslashi va himoya qilishi soʻraladi. Dars samaradorligini oshirish maqsadida keying tavsiya etiladigan metod bu “Pinboard” deb nomlanuvchi usuldir.

“Pinboard” soʻzi inglizchadan olingan boʻlib, “pin mustahkamlash”, “board-doska” maʼnosini anglatadi. Bu oʻqitish metodining asosiy mohiyati va maqsadi shundan iboratki, unda talabalar ishtirokidagi munozara va oʻquv suhbatlari amaliy usul bilan bevosita bogʻlanib ketadi. Har bir oʻquvchida muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Oʻz fikrini ravon va erkin bayon eta olish qobiliyati paydo boʻladi, mantiqiy fikr yuritish koʻnikmalari rivojlanadi.

Doskaga chiqqan paytda yoki koʻpchilik omma oldida oʻz shaxsiy va dunyoviy fikrlarini koʻrsata olish qobiliyati shakllanadi. Tengdoshini eshita olish, fikrini inobatga olish, oʻz fikrida qolish, boshqaning notoʻgʻri javobini isbotlab berish kabi koʻnikmalar paydo boʻladi. Bugungi kunda taʼlim tizimiga koʻplab zamonaviy texnologiyalar va metodlar kirib kelmoqda. Ammo, ulardan qay tarzda, qaysi paytda, qanday mavzuda foydalanish bu oʻrgatuvchining zukkoligi, izlanuvchanligiga, dars - mashgʻulotlarni ham qiziqarli, ham ilmiy maʼlumotga boy tarzda tashkil etishiga bogʻliq deb oʻylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov Oʻ, Yokubov I. INgliz tili oʻqitish metodikasi, Toshkent, 2003-yil Ученый XXI века • 2022 • № 2 (83) 60
2. Qodirova F. Pedagogik taʼlim, Toshkent, 2002-yil
3. Chet tillarni oʻqitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2007-yil.
4. Xorijiy tillarni oʻrganish tarixi, bugun va istiqboli. Hududiy ilmiy-amaliy anjumanlari, Andijon, 2016-yil. © S.A. Elmurodova, F.Gʻ.Tolibova, 2
5. Yoʻldoshev J. Yangi pedagogik texnologiyalar yoʻnalishlari muammolari- Xalq taʼlimi, 1999-yil.
6. 6.Abdinazarov Sh. Taʼlim-tarbiyaning aktual masalalari, Qarshi, 1991-yil
7. Zaripov F. Chet tillar oʻqitish metodikasidan qoʻllanma, Toshkent, 2002-yil.
8. Анваров А. У. Роль информационных технологий в изучении иностранных языков //Молодой ученый. – 2021. – №. 14. – С. 115-117.
9. Anvarov A. U. The role of information technologies in the study of foreign languages //Young scientist. – 2021. – T. 14. – С. 356.
10. Anvarov A. THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN ADDITION TO COMBINING THE KNOWLEDGE OF SUBJECT ON THE BASIS OF COMMUNICATION //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 389-395.
11. Anvarov A. THE ROLE OF REVERSIBLE EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS OF MEDICAL

- EDUCATION //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2025. – Т. 2. – №. 6, 2-qism. – С. 135-138.
12. Anvarov A. U., Kostiouchkina O. M. Psychological and pedagogical bases of professional training of specialists in a foreign language. – 2023.
13. Анваров А., Ирискулова Ф. ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Engineering problems and innovations. – 2023.
14. Анваров А. У., Шербекоев Н. Использование медицинских терминов английского языка в медицине Узбекистана //ББК 72я43 (4Беил+ 5Кит) Н76. – 2021. – Т. 81.
15. Tuychieva O. MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MEDICAL CULTURE: ON THE EXAMPLE OF MEDICAL EDUCATION //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 10. – С. 149-159.
16. Anvarov A. U. A New Approach To Improving The Professional Skills And Personal Qualities Of Foreign Language Teachers In Higher Education Countries //International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 78-80.